



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLUZIV TA'LIMGA MUHTOJ BO'LGAN
BOLALAR BILAN ISHLASH**

*Andijon davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich, 104-guruh talabasi
Satimboyeva Ruxshona Xayrullo qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233997>

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, uning kelib chiqishi, ahamiyati va maqsadi haqidagi fikrlar keltirilgan. Alohida ta'lim ehtiyojiga muhtoj bo'lgan bolalarning qo'llab-quvvatlanishi, huquqlari, individual yondashish, ularni sifatli ta'lim bilan ta'minlash va ular uchun imkoniyatlar yaratilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, individual reja, imkoniyati cheklanganlar, qarorlar, defektologiya, rehabilitatsiya, mexanizm, pedagoglar tarkibi, toifalar, tarbiyaviy va ijtimoiy, korreksion sinflar.

Ruhiy hamda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda “Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi”.

“Inklyuziv ta'lim” tushunchasiga ta'rif berishdan oldin “inklyuziv” atamasiga to'xtalib o'tsak. “Inklyuziv ta'lim” atamasi inglizcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'lim esa millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi.

Takomillashgan ilk qadam davlat o'quv dasturining 2-bob, 4-bo'limida: “Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish”³ hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari javobgar bo'ladi va zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola hamda uning rivojlanishi uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi” degan fikrlar aytib o'tilgan.

Ta'lim tashkilotlarimizda sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikdagi ta'lim tizimining joriy etilishi yurtimizda xalqaro inson huquqlari me'yorlariga mos islohotlar amalga oshirilayotgani juda ham quvonarli.

Inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar ham o'z tumanlaridagi umumta'lim maktablarida oddiy sinflarda, yoshlariga muvofiq bilim olish uchun kerak bo'lgan yordamni olganlari va maktab hayotidagi barcha jabhalarda ishtirok etishlari hamda o'z hissalarini qo'shishlarini anglatadi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga – ta'limda asosiy ehtiyojga muhtoj bo'lgan va bo'lmaganlarga ham ijobiy tarzda tarbiyaviy va ijtimoiy ta'sir qiladi. Butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. Bola huquqlari haqidagi

³ DAVLAT O'QUV DASTURI /TAKOMILLASHTIRILGAN IKKINCHI NASHR/ Toshkent-2022



Konvensiyaning 19-moddasiga ko'ra "Bola ota-ona yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanishi, qo'pol muomalada bo'lishdan himoyalani huquqiga egaligini inobatga olib, ayrim mamlakatlarda ilgari ishlatiladigan atamalardan "defektologiya", "anomal bolalar", "aqlan zaif" kabi va boshqalardan voz kechmoqdalar."⁴

XIX asrning 20-yillaridan beri defektologiya fani – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan sifatida o'rganilib kelinmoqda. Hozirgi kunda bu fan «Korreksion pedagogika» deb ham yuritilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"da, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda ta'kidlanganidek, respublikamizda barcha fuqarolar teng huquqqa ega. Alohida yordamga muhtoj bolalar jamiyatimizning teng huquqli fuqarolari hisoblanadi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari o'rganiladi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayonini tashkil qilishda, ularning ijtimoiy maishiy moslashuvini amalga oshirish jarayonida, o'ziga xos tomonlarini aniqlashda tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya ishlari amalga oshiriladi.

bola shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari ijtimoiy reabilitatsiya orqali esa rivojlantiriladi. Jarayon davomida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola bilan vujudga keladigan g'oyat katta ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bir qator muammolar bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni samarali

boshlash uchun ularning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, ijobiy va salbiy tomonlarini, ta'sir etish natijalarini oldindan ko'rish va korreksiyalashni o'z vaqtida boshlash kerak. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi

turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning turli xil toifalari ustida defektologiya (Korreksion pedagogika) fanida ish olib boriladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Eshitish kamchiliklariga ega bolgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
2. Ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
3. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar;
4. Nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
5. Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
6. Ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
7. Mujassam kompleks nuqsonli ko'r, kar-soqov bolalar;
8. Rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
9. Autizm sindromiga chalingan bolalar.

Alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inkluziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya tashkilotlarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Har qanday alohida yordamga muhtoj bolada kuzatiladigan nuqson markaziy yoki periferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

⁴ Raxmanova V.S. Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika). Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. /V.S. Raxmanova. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – T.: «Niso Poligraf». – 168 b.



Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni jamiyatdan uzib qo'ymaslik balki, jamiyatga ijtimoiylashtirish va ijtimoiy himoya qilish hamda ularni yanada sifatli ta'lim va tarbiya bilan ta'minlash zarur va bu masalada bolalarga yordam berish, huquqlarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash bizning, ya'ni, bo'lajak pedagoglarning ham oliy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr. (<http://marifat.uz/marifataruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022
3. “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 12.10.2021 yildagi 638-son
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni.
5. F.U.Qodirova va b./ Maxsus pedagogika asoslari /O'quv qo'llanma – Chirchiq “Nazokatxon ziyo print”, 2023. – 260 bet
6. F.U.Qodirova va b. / Inklyuziv va korreksion ta'limda Art texnologiyalar / O'quv qo'llanma – Chirchiq “Zebo Print”, 2022.
7. F.U.Qodirova va b. / Inklyuziv va korreksion ta'limning filologik asoslari / O'quv qo'llanma – Chirchiq “Zebo print”, 2022.
8. Maxsus psixologiya L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjonova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova, O'zbekiston faylasuflari nashriyoti. Toshkent -2013
9. X.N.Muzaffarova Maktabgacha logopediya. Jizzax. “Ruhshona servis” 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktabrdagi 638-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2021 yil 13 dekabr, 49-son, 1195-modda.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020 yil 10 dekabr, 49-son, 1195-modda. QNMMB: 07/20/4860/1383-son 14.10.2020 y.